BANK HISOBI TURLARI VA ULARNING MOHIYATI

Boyqobilova Iroda Jontemir qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Buxgalteriya kafedrasi katta o'qituvchisi

Olimova Dilobar Nurkomil qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Bank-moliya xizmatlari fakulteti
Bank ishi yo'nalishi 424-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20083638

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank hisobi tizimi, uning iqtisodiy mohiyati hamda asosiy turlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, operatsion hisob va soliq hisobining bank faoliyatidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Har bir hisob turi bank operatsiyalarini samarali tashkil etish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita sifatida qaraladi. Tadqiqot davomida bank hisobi turlarining o'zaro bog'liqligi va ularning bank tizimi barqarorligiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy sharoitda bank hisobini yuritishda raqamlashtirish jarayonlari va xalqaro standartlarning ahamiyati ham asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Bank hisobi, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, operatsion hisob, soliq hisobi, bank tizimi, moliyaviy nazorat, raqamlashtirish

Annotation: This article analyzes the banking accounting system, its economic essence, and its main types from a scientific perspective. In particular, the roles and significance of financial accounting, management accounting, operational accounting, and tax accounting in banking activities are highlighted. Each type of accounting is considered an important tool for organizing banking operations efficiently, strengthening financial control, and supporting managerial decision-making. The study also reveals the interrelationship between different types of bank accounting and their impact on the stability of the banking system. In addition, the importance of digitalization processes and international standards in modern banking accounting is substantiated.

Keywords: Banking accounting, financial accounting, management accounting, operational accounting, tax accounting, banking system, financial control, digitalization

Аннотация: В данной статье научно анализируются система банковского учета, ее экономическая сущность и основные виды. В частности, раскрываются роль и значение финансового учета, управленческого учета, операционного учета и налогового учета в деятельности банков. Каждый вид учета рассматривается как важный инструмент эффективной организации банковских операций, усиления финансового контроля и принятия управленческих решений. В ходе исследования выявлена взаимосвязь различных видов банковского учета и их влияние на устойчивость банковской системы. Также обоснована значимость процессов цифровизации и международных стандартов в современном банковском учете.

Ключевые слова: Банковский учет, финансовый учет, управленческий учет, операционный учет, налоговый учет, банковская система, финансовый контроль, цифровизация

Kirish

Zamonaviy bank tizimi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi, pul oqimlarining uzluksiz harakati hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonlarda bank hisobi alohida ahamiyat kasb etib, u nafaqat moliyaviy operatsiyalarni qayd etish vositasi, balki bank faoliyatini boshqarish, nazorat qilish va tahlil etishning muhim instrumenti hisoblanadi.

Banklarda buxgalteriya hisobi turli yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etilib, har bir yo‘nalish muayyan operatsiyalarni aks ettirishga xizmat qiladi. Xususan, lizing operatsiyalari hisobi asosiy vositalarni uzoq muddatli ijaraga berish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq moliyaviy munosabatlarni aks ettiradi.

Lizing operatsiyalari hisobi 15600 — "Lizing (moliyaviy ijara)" birinchi tartibli balans hisobvaraqlari doirasida quyidagi ikkinchi tartibli balans hisobvaraqlarida yuritiladi:

15600 — Lizing (moliyaviy ijara)
15601 — Boshqa banklarga berilgan lizing15603 — Jismoniy shaxslarga berilgan lizing
15605 — Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing
15607 — Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan lizing
15609 — Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan lizing
15611 — Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan lizing
15613 — Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing
15615 — Bank bo‘lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing
15617 — Muddati o‘tgan lizing
15619 — Shartlari qayta ko‘rib chiqilgan lizing
15699 — Lizing bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

Faktoring operatsiyalari hisobi debitor qarzlarni boshqarish va moliyalashtirish jarayonlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, asosiy vositalarning hisobi bank aktivlarining shakllanishi, ularning eskirishi va samarali foydalanilishini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklarida faktoring operatsiyalar quyidagi 1 va 2 tartibli schetlarda hisobga olinadi:

11100 — Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring
11101 — Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring
11103 — Muddati o‘tgan sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring
11105 — Sud jarayonidagi sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring
11195 — Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring bo‘yicha diskont (kontr-aktiv)
11199 — Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)

Faktoring operatsiyalari bo‘yicha to‘lov hujjatlari hisobini yuritish uchun bank tomonidan kutilmagan holatlar schetlarida 90966 — "Xarid qilingan debitorlik qarzlari - faktoring" shaxsiy schetlari ochiladi. Ushbu schet debeti bo‘yicha xarid qilingan debitorlik qarzlarning to‘liq summasi aks ettiriladi, krediti bo‘yicha esa to‘lovchilar to‘liq so‘ndirgan, xarid qilingan debitorlik qarzlari hisobdan chiqariladi va quyidagicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi:

Dt 90966 — "Sotib olingan debitorlik qarzlari – Faktoring",

Kt 96331 — "Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring bo‘yicha kontr-schet".Taraflar tomonidan faktoring pul talabini berish to‘g‘risidagi shartnoma imzolangandan keyin bank moliyaviy agent mablag‘larni mijozning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit schetiga diskont summasini chegirgan holda o‘tkazishni amalga oshiradi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 11101 — "Sotib olingan debitorlik qarzlari – Faktoring" scheti,

Kt 20208 — "Talab qilib olingungacha saqlanadigan depozitlar",

Kt 11195 — "Sotib olingan debitorlik qarzlari – Faktoring bo‘yicha diskont".

faktoring operatsiyalari hisobi debitor qarzlarni boshqarish va moliyalashtirish jarayonlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, asosiy vositalarning hisobi bank aktivlarining shakllanishi, ularning eskirishi va samarali foydalanilishini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, bank faoliyatida kassa operatsiyalari hisobi va naqd pul operatsiyalari alohida o‘rin egallaydi. Ushbu hisob yo‘nalishlari orqali banklarda naqd pul mablag‘larining qabul qilinishi, saqlanishi va berilishi bilan bog‘liq jarayonlar tartibga solinadi hamda moliyaviy intizom ta’minlanadi. Naqd pul oqimlarining to‘g‘ri va aniq hisobga olinishi bank likvidligini boshqarish, mijozlar bilan hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xo‘jalik subyektlari va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul omonatga qo‘yilganda, bankning kassa aktivlari oshishi bilan birga, majburiyatlari ham (Dt 10101, Kt 20xxx) parallel ravishda o‘sib boradi.

Xizmat safari va moddiy yordam kabi to‘lovlar bevosita mijozning depozit hisobvarag‘idan (Dt 20xxx) kassa aktivi (Kt 10101) hisobiga amalga oshiriladi.

Shu nuqtai nazardan, bank hisobi turlari va ularning alohida operatsiyalar kesimidagi o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi bank hisobi tizimining tarkibiy elementlarini, xususan lizing, faktoring, asosiy vositalar hamda kassa va naqd pul operatsiyalari hisobini tahlil qilish hamda ularning bank faoliyati samaradorligiga ta’sirini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Amaliy-metodologik yondashuv sifatida oladigan bo‘lsak A.S. Teterleva o‘z kitoblarida bank operatsiyalarini tashkil etish, daromad va xarajatlarni shakllantirish hamda moliyaviy natijalarni aniqlashning amaliy mexanizmlariga e’tibor qaratadi.

Kompleks-tahliliy yondashuvda esa D.E. Norbekov, A.N. To‘raev va Sh.Sh. Rahmonovlar bank faoliyatini obyektiv baholashda moliyaviy holat, pul oqimlari va kapital o‘zgarishlarini to‘liq qamrab oluvchi kompleks hisobotlarning ahamiyatini ta’kidlaydilar.

Xalqarolashuv va shaffoflikni oladigan bo‘lsak S.N. Tashnazarov va D.D. Pashaxodjayeva bank hisobini xalqaro standartlarga (MHXS) moslashtirish orqali tizimning ishonchliligini oshirishni asosiy strategik yo‘nalish sifatida belgilaydilar.Xulosa qilib aytganda, sifatli va qiyoslanuvchi moliyaviy axborotlar investor va tahlilchilar uchun risklarni boshqarish hamda samarali investitsion qarorlar qabul qilishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada bank hisobi turlari va ularning mohiyatini o‘rganish jarayonida mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida bank hisobi tizimining nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari o‘rganilib, ular o‘zaro solishtirildi va umumlashtirildi. Shu asosda bank hisobi tizimining ahamiyati, uning samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar hamda mavjud muammolar aniqlanib, tegishli xulosalar shakllantirildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida taqqoslash, tahlil, kuzatish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Olingan natijalarni yanada aniq va tushunarli ifodalash maqsadida jadval va boshqa ko‘rgazmali vositalardan foydalanish nazarda tutilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Bank hisobi tizimi tarkibiy jihatdan turli yo‘nalishlarni qamrab olib, har bir hisob turi bank faoliyatining muayyan bosqichida muhim vazifani bajaradi. Mazkur tadqiqot doirasida lizing, faktoring, asosiy vositalar hamda kassa va naqd pul operatsiyalari hisobi o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, lizing operatsiyalari hisobi bank aktivlarining uzoq muddatli shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu operatsiyalar orqali banklar real sektorni moliyalashtirish bilan birga, barqaror daromad manbaini shakllantiradi. Biroq, lizing operatsiyalarida muddati o‘tgan qarzlar ulushi ortishi bank risklarini oshirish ehtimolini yuzaga keltiradi.

Faktoring operatsiyalari hisobi esa banklar uchun qisqa muddatli likvidlikni ta’minlashda samarali vosita hisoblanadi. Debitor qarzlarni sotib olish orqali banklar mijozlarning aylanma mablag‘larini tezkor ravishda to‘ldirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, faktoring operatsiyalarida to‘lov intizomi past bo‘lgan mijozlar bilan ishlash kredit risklarini oshirishi mumkin.

Asosiy vositalar hisobi bank aktivlarining moddiy asosini tashkil etib, ularning to‘g‘ri baholanishi va eskirishini hisobga olish bankning moliyaviy holatini real aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, asosiy vositalardan samarali foydalanish bank xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Kassa va naqd pul operatsiyalari hisobi bank likvidligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Naqd pul oqimlarining to‘g‘ri boshqarilishi bankning to‘lovga qobiliyatini mustahkamlaydi hamda mijozlar ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, ushbu operatsiyalarda inson omili bilan bog‘liq xatoliklar yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo‘lib, bu qo‘shimcha nazorat mexanizmlarini talab etadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank hisobi tizimining samaradorligi alohida hisob turlarining mavjudligi bilan emas, balki ularning o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlashi bilan belgilanadi. Ayniqsa, zamonaviy bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari ushbu hisob turlarini yagona axborot tizimiga birlashtirish orqali ma’lumotlarning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini ta’minlash imkonini bermoqda.

Shu sababli, banklarda hisobot tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida alohida hisob turlarini rivojlantirish bilan birga, ularni yagona raqamli platforma asosida integratsiyalash zarur hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijasida bank hisobi tizimi va uning asosiy turlari bank faoliyatining ajralmas qismi ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Xususan, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, operatsion hisob va soliq hisobi bank operatsiyalarini samarali tashkil etish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, lizing va faktoring operatsiyalari hisobi banklarning aktiv operatsiyalarini rivojlantirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda daromad bazasini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, asosiy vositalar hisobi bank aktivlarining real qiymatini aks ettirishga xizmat qilsa, kassa va naqd pul operatsiyalari hisobi bank likvidligini ta’minlash va moliyaviy intizomni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, bank hisobi tizimining samaradorligi alohida hisob turlarining mavjudligi bilan emas, balki ularning o‘zaro uyg‘un va integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda raqamlashtirish jarayonlari bank hisobini yuritishda aniqlik, tezkorlik va shaffoflikni ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, banklarda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishda alohida hisob turlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularni yagona raqamli platforma asosida integratsiyalash, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda malakali kadrlar tayyorlash ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining buxgalteriya hisobi va MHXSga o‘tish bo‘yicha qarorlari.
3. International Accounting Standards Board (IASB). International Financial Reporting Standards (IFRS) Framework.
4. Norbekov D.E., To‘raev A.N., Rahmonov Sh.Sh. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot asoslari.
5. Tashnazarov S.N., Pashaxodjayeva D.D. Buxgalteriya hisobi va audit asoslari.
6. Nobes C., Parker R. Comparative International Accounting.